TAYYORLOV GURUX TARBIYALANUVCHILARING O‘QISH SAVODXONLIGI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY PSIXOLOGIK YONDASHUV

Hakimov Abbosxon Oribjon o‘g‘li
NamDPI o‘qituvchisi
abbosxonxakimov210@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23886882

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalar rivojlanishiga tasir ko‘rsatuvchi psixologik omillar ularning maktabgachga tayyorlov guruh bolalarni o‘qish savodxonligini rivojlantirishi, ijtimoiy muxitning o‘ziga xosligi bolalarni kuzatish, rivojlanish maktab ta’limiga tayyorgarligi aqliy,bilish,jismoniy,psixologik tamonlari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Rivojlanish,muloqot, faoliyat, kuzatish, tahlil, rejalashtirish, qo‘llash, anglash, shaxs, qiziqish, ehtiyojlar,_savodxonlig, o‘qish,aqliy.

KIRISH.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarng asosiy faoliyatlari o‘zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtjmoiy burchi o‘qish bo‘lib qoladi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo‘lgan o‘qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo‘lishlarini talab etadi. O‘qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o‘tkir zehn, mustaqillik, intuluvchan bo‘lishi kerak bu bolalarni maktab ta’limiga tayyorligini hamda o‘qish savodxonligiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish. Hususan, maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatni tubdan isloh qilish, bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrovini oshirish borasidagi vazifalar ko‘rsatib o‘tildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni[1] va «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq maktabgacha ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog‘lom va

barkamol etib tarbiyalash, maktab ta’limiga tayyorlash sifatini oshirishning barcha jihati belgilab berildi.

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar va muammolarni bartaraf etish, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» tasdiqlandi[2]. Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotidan maktabga o‘tishlari natijasida kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarida ham birmuncha o‘zgarish yuz,beradi. Bolalarning maktabga o‘tishlari, ularning kichikdan muassasaga o‘tishlariga qaraganda murakkab bosqichdir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o‘tishi bilan uning ijtimoiv holatida ham o‘zgarish ro‘y beradi. Chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar muassasada "katta" deb hisoblanar edilar. Maktabga o‘tgach, ular yana "eng kichkinalar" qatoriga tushib qoladilar. Bolalarning maktabga o‘tishlari bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy o‘zgarishlarni nazarda turib, ulami maktabga har tomonlama tayyorlash kerak[6]. Bolalar muassasaning asosiy vazifalaridan bin bolalarga har tomonlama tarbiya berib, ulaming taraqqiyot darajalarini maktabda o‘qiy oladigan qilishdan iboratdir. Bu esa, o‘z navbatida, maktabdagi o‘qitish ishlari bilan muassasadagi ta'lim-tarbiya ishlari o‘rtasida ma’lum izchillik bo‘lishini talab qiladi. Muassasada Bolalarning jismoniy jihatdan o‘sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy o'sishlariga ham shunchalik etibor beriladi[4]. Ularning maktabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, o‘tkaziladigan turli didaktik mashg‘ulotlarda Bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, hayol hamda tafakkurlari, irodalari sistema tarzda taraqqiy ettirib boriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo‘lishi hamda ma’lum darajada aqliy jihatdan o‘sgan bo‘lishi lozim. Biroq hayotda shunday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega bo‘lgan va hattoki yozish hamda o‘qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o‘qishga tayyor bo‘lmaydilar. Ular maktab va o‘qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar etarli tasavvur boyligiga ega bo‘lmasalar ham, maktabda o‘qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagi o‘qish jarayoni

uchun ma’lum darajada aqliy jihatdan o‘sgan bo‘lish maktabda dastlab o‘qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal qiluvchi omil emas, chunki bu erda yosh masalasi ham bor. Boshqa bir olimlar bolaning o‘qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining etilganligidir, deydilar. Bu filer bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yishdan boshqa narsa emas. Yetti yoshga to‘lish davri go‘daklikning tugashi davriga to‘g‘ri keladi. Xuddi ana shu davrdan boshlab bolalarda o‘z-o‘zini anglash tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun bolalarning etti yoshga to‘lgan davridan boshlab sistemali suratda o‘qitishga o‘tish maqsadga muvofiqdir. K.D.Ushinskiyning fikricha, bolaning maktabdagi o‘qish faoliyatiga tayyorligi ayrim psixik jarayonlarning taraqqiyot darajasi emas, balki bola shaxsining umumiy taraqqiyot darajasi bilan aniqlanadi[7]. Bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib topa boshlaydi. Bu shunday hollarda ko‘rinadiki, bolalar o‘zlari yashab turgan ijtimoiy muhitdan o‘z o‘rinlarini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq, yanada to‘laroq munosabatlar sistemasini o‘rgatishga intiladilar. Katta guruh bolalari maktabga o‘tishdan ancha ilgariyoq maktab haqida orzu qila boshlaydilar. Maktabning qanday ekanini kattalardan tez-tez surishtirib turadilar. Maktabga borish vaqtlarini aniq bilishga harakat qiladilar. Agar biror o‘rtoqlari maktabga o‘tib ketsa, juda havaslari kelib, o‘zlari muassasada qolganlaridan o‘ksinib ketadilar. Katta yoshdagi muassasa bolalarining maktabga intilishlari ijtimoiy munosabatlar sistemasidan yangini egallashga bo‘lgan intilishlarining konkret ifodasidir. Shunday qilib, bolaning maktabdagi o‘qishga tayyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o‘z-o‘zidan ko‘tarilmaydi. Uni bu bosqichga muassasadagi va oiladagi butun ta’lim-tarbiya ishi ko‘taradi. Bola yetti yoshga to‘lganda jismoniy jihatdan ancha o‘sadi, o‘zini idora qilishga, nojo‘ya xatti-harakatlardan o‘zini tiyishga, hulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishga harakat qiladi. U o‘zini eplay boshlaydi, o‘z kuchiga yarasha mehnat qila oladi, masalan, bolalar muassasasida navbatchilik vazifasini bemalol uddalaydi, jamoada yashashga ko‘nika boshlaydi. Bolaning turmush tajribasi tobora ortadi, ko‘p narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o‘sib, ko‘pgina she’r va hikoyalami yoddan bilib oladi[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bolaning nutqi ma’lum darajada o‘sgan bo‘ladi, u o‘z o‘rtoqlari va kattalar bilan erkin suhbat qila oladi. Yetti yoshli bolalarning his-tuyg‘ulari ancha o‘sadi. Xayrixohlik, rahmdillik, o‘rtoqlik kabi xis-tuyg‘ular mustaxkamlana boshlaydi.Bu davrda bolada turli harakatlar mustaxkamlanadi, u qaychi,igna, qalam kabi qurollardan foydalanish malakasini egallay boshlaydi. Biroq bu davrda ham bolada hali beixtiyor aktivlik ancha ustun turadi. Shu sabab u bolani qiziqtiradigan yoki unga kuchli ta’sir qiladigan narsalar uning diqqatini jalb qiladi. Bu yoshda ham o‘yin judda katta rol o‘ynaydi. O‘yin jarayonida bola o‘zini idora qilishga, o‘z harakatlarini o‘yin qoidaiariga bo‘ysundirishga, javobgarlikka,jamoa manfaatini ustun qo‘yishga odatlanadi. Bu xislatlar keyinchaliko‘qish mehnatiga o‘tish uchun zarur bo‘lgan xislatlardir. O‘yinjarayonida bolaning aql-idrokr, zehn va boshqa psixik xususiyatlari o‘sadi. Bular o‘z navbatida, bolaning maktabda o‘qishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zaminni tayyorlash va mustahkamlashda, albatta oilada hamda bolalar muassasasida olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Yetti yoshga to‘lib, maktabga chiqqan bolalarning psixik jihatdan bundan keyingi o‘sishi maktabda hamda oilada olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishi jarayonida amalga oshiriladi.Ta’limga psixologik tayyorlik deganda bolaning ob’ektiv va sub’ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta’limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi[6]. Shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o‘yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg‘ulotlarida, loy hamda plastihndan o‘yinchoqlar tayyorlashda, o‘zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko‘rinadi[6].

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Bola o‘z diqqatini muayyan ob’ektga to‘plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g‘aroyib, kishini taajubga soladigan ma’lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u

yoki bu axborotlarni o‘zlashtirib kelgan bo‘lsa, endi o‘z xohish-irodasi bilan zarur ma’lumotlar to‘plashga, o‘z oldiga aniq maqsad va vazifa qo‘yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganhgini bildiradi. U she’r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko‘p takrorlashi, yod olishning eng qulay yo‘l va usullaridan foydalanishi ta’lim jarayonida unga juda qo‘l keladi. Birinchi sinf o‘quvchisi ko‘pincha obraz U xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, ta’lim so‘z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So‘z mantiq xotirasining mavjudligi ma’nosini-tushunib esda-olib, qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma’lumki, bola ma’nosiz so‘zlardan ko‘cha ma’noda tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning maktab ta’limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini o‘qib olish va to‘g‘ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko‘lam jixatdan almashishga etarlicha bo‘ladi. U eshitgan va ko‘rganlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tushuna oladi. O‘zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o‘rinli foydalanadi (ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi, umumlashtiradi, hukm va xulosa chiqarishga harakat qiladi). Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi haqida gapirilganda ko‘pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko‘p qirrali maqsadga yo‘naltirilgan, o‘zaro mantiqiy bog‘liq, izchil boshlang‘ich ta’limga zamin vaiifasini o‘tovchi psixik o‘sish darajasini nazarda tutamiz[7]. Shuningdek, ta’lim uchun psixik o‘sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari,sharoitlari, o‘ziga xosligi, uning sihat-salomatligi, uslubiy jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirgani kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bola maktab ta’limiga psixologik tayyorlanishning sub’ektiv tomoni ham mavjuddir. Uning maktabda o‘qish xohishi, intilish, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog‘liqdir. Bolalarni psixologik jixatdan maktabga tayyorgarligi. Bolaning maktabda muvaffakiyatli o‘qishi ko‘p jixatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog‘lik. Bola avvalo maktabga jismoniy jixatdan tayyor bo‘lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi uziga xos tarzda kechadi.

XULOSALAR

Shuni inobatga olish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar bu yoshdagi bolalar organizmi xali o‘sishini davom ettirayotganligini doimo xisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o‘rgatish xali barmok muskullari tulik rivojlanib bo‘lmaganligi sababli ularga ma’lum darajada zarar keltirishi yoki uning chiroyli yoza olmasligi, o‘z-o‘zidan bolani o‘ziga nisbatan ishonchini yoki o‘kishga nisbatan qizikishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchi tayyorgarlik bu akliy tayyorgarlikdir. Kupincha aqliy tayyorgarlik deganda bolaning ma’lum bir dunyokarashi jonli tabiat, insonlar va ularning mexnatlari xaqidagi bilimlari tushuniladi. Beradigan ta’limga asos bulishi mumkin, lekin suz boyligi, ma’lum xatti-xarakatlarni bajara olish layokati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish,taxlil eta olish, umumlashtira olish, ma’lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan bilish jarayonlarini amalga oshadi. Ushbu bilimlar bolalarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishi orqali o‘qish savodxonligini rivojlantiradi va kattalar bilan muloqotchanligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5198-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PQ-4312-sonli Qaroriga 1-Ilova.

3. O‘zbekiston Pespublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi «Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 802-sonli Qaroriga 1- Ilova.

4. “Ilk qadam” (takomillashtirilgan) Davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022 y.

5. Abbosxon o‘g‘li, A. A., & Bahodirovna, A. R. N. (2026). *Simptomatik epilepsiyada temir metabolizmi, oksidativ stress va ferroptoz biomarkerlarining patogenetik ahamiyati* (Doctoral dissertation, “FAN VA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI” Ilmiy-onlayn konferensiya).

6. Ahmedova H. Va boshqalar. Bolangiz maktabga tayyormi? –T.: “Ma’rifat-Madadkor” nashriyoti, 2000 y. -320-b.

7. Z.T.Nishanova, G.F.Alimova, A.G‘.Turg‘unboeva M.X.Asranboeva. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. –Toshkent. 2017 y.